

## ATOIY VA NAVOIY G'AZALLARIDAGI TUSHUNILISHI QIYIN BO'LGAN SO'ZLARNING LEKSIKOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI

*Xoshimova Husnida Dilshodbek qizi*

*Ubaydullayeva Qunduzoy Habibullo qizi*

*Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti*

*3-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Biz yashab turgan davr — XXI asrdagi hamda Atoiy va Navoiylar yashab ijod qilgan davr — XV asrdagi qo'llanilgan so'zlar xohlaymizmi, yo'qmi vaqtlar, zamonlar, mafkuralar ta'sirida o'zgarib boradi. Yangi so'zlar qo'shiladi, ayrimlari iste'moldan chetga chiqadi. Shu sababdan ham ularning asarlarini o'quvchi kishi ba'zi so'zlarning ma'nolarini anglolmay qolishi mumkin. Biz ushbu maqola orqali o'quvchi—kitobxonlarga qisman bo'lsada so'zlarning leksikologik va morfologik tahlilini berib o'tdik.

**Kalit so'zlar:** Atoiy, Navoiy, leksikologik tahlil, morfologik tahlil.

**Annotation:** The times we live in - the 21st century and the period in which Atoi and Navoi lived and created - the 15th century, the words used change, whether we like it or not, under the influence of times, times, and ideologies. New words are added, some fall out of use. For this reason, the reader of their works may not understand the meaning of some words. Through this article, we have given our readers a partial lexicological and morphological analysis of words.

**Key words:** Atoiy, Navoiy, lexicological analysis, morphological analysis.

Atoiy (XV asr, Balx) — shoir. Yassaviy avlodidan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o'rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy («Majolis un-nafois») Atoiy hayoti va ijodi haqida to'xtalib, «Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O'z zamonida she'ri atrok (turkiy tilda so'zlovchilar) orasida ko'p shuhrat tutti. Bu matla' aningdurkim:

Ul sanamkim suv yaqrsinda paritek o'lturur,

G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur.

...Mavlono ko'p turkona (sodda, ravon) aytur erdi...», deydi. Navoiy «Nasoim ul-mahabba min shamoim ilfutuvva» («Muhabbat shabadalari») asarida Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o'g'li ekanini aytadi.

Bizning yashab turgan davrimiz Atoiy yashab ijod qilgan davrdan ancha uzoq bo'lganligi bois tilimiz bir bo'lganiga qaramay biz shoir qo'llagan so'zlarning barchasini birdek tushuna olmaymiz. Buni biz yangi tug'ilgan chaqaloqqa qiyoslasak, bola tug'ilgach uning sochlari, qoshlari, kipriklari o'sa boshaydi, tishlari chiqishni

boshlaydi. Shu kabi tilimizning ham vaqt, zamon ta'sirida « sochlari, qoshlari, kipriklari va tishlari» o'sib rivojlanib boradi. Biz ijodkor g'azallaridagi bugungi kitobxon uchun tushunarsiz, anglanilishi qiyin bo'lgan so'zlarni leksikologik hamda morfologik tahlilini bermoqchimiz. Leksikologik tahlilda so'zning ma'nosi izohlab, ochiqlab berilsa, morfologik tahlilda so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanligi, tuzilishiga ko'ra qandayligi, qaysi ma'noviy guruhga mansubligi kabi masalalar o'rta tashlanadi.

*Zihi davlat, ki aylar ko'zlariga,  
Sumandek xoki rohin to'tiyogo'y.*

Baytda keltirilgan «zihi» so'zi «yaxshi, joyida, go'zal, ajoyib » kabi mazmunlarni ifodalab, biror narsaning g'oyat go'zal va yaxshiligidan hayajonlanishni bildiradi. Qanday yaxshi! Qanday go'zal! kabi. «Zihi» so'zi oraliqdagi so'z turkumi (alohida olingan so'z turkumi) bo'lib , his-hayajon undovlari sirasiga kiradigan, XV asr leksikasiga oid so'z hisoblanadi.

*Mahzi ravonu ruh turur qaddi qomating,  
Har necha sinchilar kishi boshtin ayog'ini.*

1-misrada qo'llangan «mahz» so'zi «xolis, sof» degan ma'noni bildiradi. Bu yerdagi misrada shoir yorning qaddini sof ravon deya baholamoqda. Demak biz «mahz» so'zini sifat turkumiga oid sodda tub, oddiy darajadagi belgi bildiruvchi so'z sifatida qabul qilamiz

*Ey Atoyi, bu sening she'ringmu yo lo'liu tar  
Yo qilibsani sehri nayranjotu sayd etsang pari.*

2-misrada qo'llangan «nayranjot» so'zi «nayrang»ning arabiy lashgan formasi hisoblanadi. Nayranglar, makr-hiylalar, ko'zboylashlar, har xil sehr-u afsun, suratlar ma'nolarining sinonimi sifatida foydalanilgan. «Nayranjot» so'zi mustaqil so'z turkumi, sodda tub ot hisoblanib u turkiy tilga arablardan o'zlashgan.

*Yuzuma surtim ayog'ing xoki rohin ko'zuma,  
Dedim: ey jon hamdami, ahlan va sahlan marhabo!*

Baytdagi «ahlan va sahlan » biz uchun tushunarsiz so'z hisoblanadi. Demak biz uning ma'nosini izohlashimiz kerak. Bu so'z « xush kelibsiz, yaxshi kelibsiz, marhamat» kabi yaxshi tilaklarni ifodalaydigan so'z. Ushbu birlik alohida olingan so'z turkumi bo'lib, nutqiy odat undovi hisoblanadi.

*Go'ydek bo'ldi Atoiy har taraf sargashta hol,  
Ul sanamlar shahsuvori azmi chavgon qilgali.*

Baytdagi «go'y» to'pga o'xshash har bir dumaloq narsa, to'p, shar, «chavgon» o'yinida o'rta qo'yib, ot ustida uchi egri uzun tayoq bilan o'ynaladigan kichkina yog'och to'p hisoblanadi va bu so'z ot turkumiga mansub, sodda tub narsa-predmet nomini bildiruvchi so'zdir.

«Shahsuvor» so'zi ot minishga mahoratli, otga mingan go'zal kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Bu o'rinda bir savol tug'iladi. «Ushbu so'zning ma'nosiga e'tibor qaratsak, bu qaysi so'z turkumiga oid so'z hisoblanadi? Sifatmi yoki ravish? » Biz bilamizki, sifat o'zgarimas, turg'un belgini ifodalashi, ravish esa harakatdagi o'zgaruvchi belgini ifodalashi bilan bir biridan farq qiladi. Demak bu yerdagi so'zda harakatdagi belgi ifodalanayotganini inobatga olib, biz bu so'zni ravish turkumiga oid deb hisoblaymiz hamda ravishning ma'no turlaridan tarz ya'ni holat ravishi sifatida e'tirof etamiz.

Endi tikonlar orasida qolib ketgan, hamisha past baho berilib kelingan turkiy tilni o'sha davrda (XV asr) dunyoning yetakchi tillari arab tili, forsiy til darajasiga olib chiqqan, tilning beqiyos imkoniyatlarini ko'rsatib bergan buyuk shaxs — Navoiy haqida fikr yuritadigan bo'lsak, Navoiy turkiy tilning rivojiga shoh asarlar yaratish bilan hissa qo'shib qolmay, uning taraqqiyotini nazariy jihatdan ham boyitdi. Bu boradagi xizmatlaridan biri 1499-yilda yaratilgan "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asaridir. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini umrining so'nggi yillarida (hijriy 905)da yozdi. Mazkur asarida qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va keng imkoniyatlarga egaligini isbotladi. Navoiyning qilgan bu xizmatlarini rus tilshonisligi grammatikasining asoschisi Lomonosovga qiyoslashimiz mumkin.

Navoiy ijod qilgan davr ham, biz yashayotgan davrdan ancha uzoq bo'lgani bois, Navoiyning leksikasida ham biz uchun tushunarsiz bo'lgan, kishidan izoh talab qiladigan so'zlar talaygina.

*Junun vodisig'a moyil ko'rarman joni zorimni,  
Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni*

Navoiy g'azalining ushbu baytida bizga notanish bo'lgan «junun» so'zini tahlil qiladigan bo'lsak ushbu so'z oshiqlik, beqarorlik, savdoyilik, jinnilik, aqldan ozganlik ma'nolarini anglatib ot so'z turkumiga mansub bo'lib kelgan.

*Yuzida terni ko'rib o'lsam, ey rafiq, meni  
Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.*

Navoiy g'azalining ushbu baytida "gulob"so'zi gul suvi, atir gul yaproqlaridan olinadigan xushbo'y ichimlik, ko'z yoshi ma'nolarida kelgan. Ushbu so'z ot so'z

turkumiga mansub bo‘lib kelgan

*Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili,*

*Kufr ila bo‘lmish mubaddal, nomusulmonimg‘a ayt.*

Navoiy g‘azalining ushbu baytida "zulfi zunnorida" so‘z birikmasini morfologik va leksik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak "zulfi" so‘zi "soch o‘rimi; mahbuba, sevgili sochi; kokil, gajak, soch tolsi" ma'nolarida, "zunnori" so‘zi esa 1-manosida "xristian dinlarining beliga bog‘laydigan chilvir, belbog‘; 2-manosida "but, o‘ziga sig‘intruvchi, tortuvchi ma'nolarida kelgan

*Ne g‘am, ko‘rguzsa ko‘ksun porasin choki giribonim,*

*Ko‘rinmas bo‘lsa ko‘ksun yorasidin dog‘i pinhonim.*

G‘azalning ushbu baytida "giribonim" so‘zining leksik va morfologik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsa so‘zning leksik ma'nosi "yoqa, kiyim yoqasi"; "choki giribon" so‘zi esa "yoqa yirtmoq, sabrsizlik qilmoq, dod voy solmoq" ma'nolarida qo‘llanilgan.

Bilamizki, tilda eng ko‘p o‘zgarishga uchrovchi qatlam leksik qatlam hisoblanadi. Atoiy va Navoiy ijodidagi ayrim so‘zlarni leksik qatlamning o‘zgarishi oqibatida biz ma'nosini tushuna olmay qoldik. Demak, bizning vazifamiz ana shu so‘zlarning izohini kelajak avlodga yetkazish va mazmun-mohiyatini ochib berish. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, tilning o‘zgarib boraverishi bizni ota-bobolarimiz me'rosini o'rganishimizga qaysidir ma'noda to'sqinlik qilib boradi. Biz bunday ayrim tushunarsiz so‘zlarning izohini berib bormasak, kelajak avlod ajdodlar merosini mutlaq tushuna olmaydigan darajaga borib qolishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U. Sanaqulov. O'zbek dabiylari tili tarixining ilk davrlari. Toshkent— 2004.
2. S. Rahimov. Matnning lingvistik tahlili
3. Devoni shayxzoda Atoiy. Toshkent — 2008
4. Navoiy. Xazoyin ul-maoniy
5. M. G' Mo'minova Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, maqola
6. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 1-jildi . Toshkent —1983.